



**Ilmiy amaliy
jurnal
№ 6 (8)
2026**

**YANGI
O'ZBEKISTON
IQTISODIYOTI**

“YANGI O‘ZBEKISTON IQTISODIYOTI” *jurnali* 6-son 2026 yil

**O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI
OLIIY TA’LIM, FAN VA INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI**

**MIRZO ULUG‘BEK NOMIDAGI
O‘ZBEKISTON MILLIY UNIVERSITETI**

YANGI O‘ZBEKISTON IQTISODIYOTI

6

ISBN 978-9943-5256-3-4

Toshkent – 2026

MUNDARIJA

Karabayev R.Z. Raqamli iqtisodiyot: nazariy asoslari va O‘zbekistonda rivojlanish yo‘nalishlari.....	8
Ubaydullayeva N.A. Zamonaviy iqtisodiy sharoitda kichik biznes korxonalarining rivojlanish strategiyalari: nazariy yondashuvlar.....	11
Xatamov A.A. Raqamli transformatsiya asosida ixtisoslashtirilgan savdo majmualarida moliyaviy resurslarni boshqarishni takomillashtirish.....	15
Yokubjonova X.Yo. Co-marketing strategiyasining ekoturizmni brendlashiga integratsiyasi: metodologik yondashuv va amaliy natijalar.....	19
Yusupova M.B., Jamoliddinova (Usmonova) S.S. Ustama xarajatlarni tasniflash va uning mahsulot tannarxini shakllantirishdagi ahamiyati.....	24
Abdug‘ofurova O.M., Yusupova M.B. Ishlab chiqarish korxonalarida tannarxni kalkulyatsiya qilish va uni takomillashtirish yo‘llari.....	27
Xojiboyev M.Sh. Xorijiy tajribalarni O‘zbekiston nodavlat oliy ta’lim muassasalari boshqaruv hisobi tizimiga moslashtirish: nazariy asoslar va amaliy istiqbollari.....	31
Исраилова Д.К. Глобализация в условиях демографического кризиса: социально-экономические риски.....	38
Qurbonova X.I. Bozor iqtisodiyotida davlatning makroiqtisodiy muvozanatni ta’minlash va inqirozga qarshi siyosati.....	43
Asqarov A.H. Oliy o‘quv yurti talabalarida moliyaviy savodxonlikni aniqlash me’zonlari (noiqtisodiy yo‘nalishi talabalarini misolida).....	47
Yunusova S.A., Turg‘unboyev A.A. Eko-mehmonxona tushunchasi, turlari va asosiy xususiyatlari.....	51
Barnayev Z.Sh. Xizmat ko‘rsatish sohasi korxonalari raqobatbardoshligining mazmun-mohiyati va xususiyatlari.....	55
Bobokulov A.A. Erkin iqtisodiy zonalar va kichik sanoat zonalarining hududiy iqtisodiy integratsiyaga ta’siri.....	59
Рахимжонов Б.Б., Рахимжонов Б.Б. Инновационные процессы как фактор развития промышленных предприятий.....	63
Matmusayev M.O. Raqamli iqtisodiyot sharoitida sanoat korxonalarining raqobatbardoshligini oshirish strategiyalari.....	67
Raxmatjonova G.E. Ishlab chiqarish korxonalarining asosiy vositalari buxgalteriya hisobini xalqaro andozalar talablari bo‘yicha takomillashtirish.....	72
Kamoldinova N.A. Ayollar tadbirkorligi faoliyatida raqamli integratsiya darajasini baholash.....	76
Xaitova M.K. Raqamli platformalar orqali biznes modellarini yangilash va kompaniyalar strategik imkoniyatlarini kengaytirish.....	81
Yo‘ldashev M., Sotvoldiyev U. Davlat byudjetini taqchilligi va uni kamaytirish mexanizmlari.....	85
Maribjonov B.I., Arabboyev J.S. Tuman mahalliy byudjetidan moliyalashtiriladigan maktabgacha va maktab ta’limi tashkilotlarining 4-guruh xarajatlarining tahlili.....	88
Ro‘ziyev Sh.Sh. Hududiy iqtisodiy rivojlanishda mahalliy ishlab chiqarishni boshqarishning zamonaviy usullari.....	92
Nematov G‘.G‘., Sotvoldiyev U.K. O‘zbekistonda yashil iqtisodiyotga o‘tishning iqtisodiy asoslari va istiqbollari: deкупpling indeksi tahlili.....	95
Karimov D.M., Mustafayeva H. Xorij tajribasi asosida O‘zbekistonda pensiya tizimini takomillashtirish....	99
Ermatova S.I. Sanoat korxonalarida majburiyatlar tarkibi va moliyaviy barqarorlikning empirik tahlili (Andijon viloyati to‘qimachilik korxonalari misolida).....	104
Ermatov M.S. Sun’iy intellekt va mehnat bozorida raqamli inqilob: tahdidmi yoki kelajak imkoniyatimi?....	107
Azizova H.A. Raqamli transformatsiya sharoitida sanoat korxonalarining investitsion-innovatsion faoliyatini takomillashtirish yo‘llari.....	111
Юсупов А.С., Джангабаева Г.П. Международный рынок акций: содержание, виды и особенности..	114
Xusanova Z.R. Andijon viloyatida ayollar tadbirkorligini rivojlantirishning tashkiliy-iqtisodiy mexanizmi va uning xususiyatlari.....	119
Abdulazizov A.A. Energetika tarmog‘i korxonalarida ishlab chiqarish resurslaridan samarali foydalanishning nazariy asoslari.....	122
Norov A.E., Fazliddinov Sh.Sh., Erkinov X.X. Liderlik va motivatsiya o‘rtasidagi munosabatga ta’sir etuvchi omillar.....	126
Атаханова Ш.С., Мирхамидова Д.Н. Цифровая трансформация как инструмент достижения ESG-целей в нефтегазовой сфере Республики Узбекистан.....	131
Toxirov J.R. Mijozlarga yo‘naltirilgan raqamli marketing asosida savdo xizmatlarini modernizatsiya qilish.	136

“YANGI O‘ZBEKISTON IQTISODIYOTI” *jurnali* 6-son 2026 yil

Sulaymonova F., Ro‘zimov B. Online ta’lim xizmatlari bozorining kengayishi natijasida an’anaviy ta’lim sektorida yuz berayotgan iqtisodiy o‘zgarishlar.....	140
Zayavitdinova N.M. Hududda xizmat ko‘rsatish korxonalari faoliyatini boshqarish strategiyasini takomillashtirish.....	143
Odilova M.A. Kimyo sanoatidagi korxonalar faoliyatida resurslardan samarali foydalanish.....	147
Axmedova D.N. Mintaqaviy raqamli tayyorlik indeksining hududiy iqtisodiy o‘lishga ta’siri.....	151
Sapayeva N.K. O‘zbekiston to‘qimachilik sanoatida yashil transformatsiya va B2B raqamli marketing asosida barqaror rivojlanish modeli.....	155
Allayarov S. Startup financing mechanisms: a comparative analysis of angel investment, venture capital, bank lending, and state grants.....	158
Махмудов О.Х. Moliya tizimining boshqa iqtisodiy tizimlar bilan aloqadorligi.....	162
Ibragimova M.M. “Yashil iqtisodiyot” va “Yashil tadbirkorlik” tushunchalarining iqtisodiy mazmuni va evolyusion transformatsiyasi.....	167
Olimjonov A. Korxona faoliyatining samaradorligini oshirishda moliyaviy barqarorlik va rentabellik ko‘rsatkichlari o‘zaro bog‘liqligini tahlil qilish.....	171
Rakhimboeva B.D. Analysis of the economic situation of the development of export activities of small businesses in Uzbekistan.....	174
Raxmatova F.Y. To‘qimachilik korxonalarida aylanma iqtisodiyot modelini joriy etishning iqtisodiy mexanizmlari.....	178
Ergasheva A.F. Milliy hunarmandchilik mahsulotlarini brendlash va bozorda pozitsiyalashning strategik yondashuvlari.....	181
Navruzova G.U. Theoretical models and institutional mechanisms, forms and structures of cooperation between education and manufacture.....	184
Djumayeva S.K. Yashil investitsiya muhitini shakllantirishda raqamli iqtisodiyotning makroiqtisodiy ta’siri (O‘zbekiston hududlari misolida).....	188
Pardayev TN., Muqimov A.R. Boymirzayev K.M. Jismoniy shaxslar tomonidan olib kiriladigan tovarlardan bojxona to‘lovlarini undirishni takomillashtirish.....	193
Ибодуллоева З.С. Экономические стимулы внедрения водосберегающих технологий в аграрном секторе Узбекистана.....	199
Ibragimova G.S. Ta’lim sifatini yaxshilashda innovatsion yondashuvlar va raqamli vositalar.....	203
Raxmatova S.S. Turizmni davlat tomonidan qo‘llab-quvvatlashning o‘ziga xos xususiyatlari.....	207
Umarova M.M. Foreign brand spillovers and export performance of smes in emerging economies: a panel data analysis.....	212
Karimova F.A. Ekoturizmni barqaror rivojlantirishning xorijiy tajribasi va ularni O‘zbekistonda qo‘llash imkoniyatlari.....	217
Raxmanov B.I. Investitsiya siyosatini amalga oshirish mexanizmini takomillashtirish.....	221
Ashurova G.N. Charm-poyabzal sanoati korxonalarida sifatni boshqarish tizimini takomillashtirish yo‘llari.....	225
Axmadjanov I.I. Shaharlar va shahar aglomeratsiyalari mintaqalar va mamlakatlar ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishining drayveri.....	228
Эгамназарова Г.Ш. Рақамли тенгсизлик: давлатлар ва тармоқлар ўртасидаги технологик узилишларни камайтириш йўллари.....	232
Mamanazarov M.A. Iqtisodiy o‘lishni rag‘batlantirishda milliy iqtisodiyotni modernizatsiya qilishning xorij tajribasi.....	236
Химматов А.Х. Йўл корхоналарини хусусийлаштиришнинг афзалликлари ва оқибатлари.....	241
Kambaraliyeva I.S. Raqamli iqtisodiyot sharoitida mehnat bozorining transformatsiyasi va raqamli ko‘nikmalarning ahamiyati.....	244
Muxiddinov T.Sh. Jizzax viloyatida turizm infratuzilmasini rivojlantirish yo‘nalishlari.....	248
Sayxdodjayeva N.I. Ijtimoiy va ekologik audit: barqaror rivojlanishni ta’minlashda zamonaviy nazorat mexanizmi.....	253
Fayzullayev J.N. Milliy iqtisodiyotni innovatsion rivojlantirishning xorijiy tajribalari.....	257
Tursunova N.X. «Xayot sug‘urtasining iqtisodiy mohiyati va uning aholi moliyaviy xavfsizligini ta’minlashdagi roli».....	261
Abdishukurova G.M., Bozorboyev A.R. Sug‘urta kompaniyasi balansini “Risk tetraedri” modeli asosida baholash.....	266
Abdurasulova M.O. Zamonaviy iqtisodiyot nazariyasi asoschilari.....	270

Vaxidov A. Buxgalteriya hisobining tarkibiy tuzilishi - moliyaviy va boshqaruv hisobi.....	273
Turg‘unova T., Muftaydinov Q. Iqtisodiy zonalarda ekologik tadbirkorlikni investitsion va innovatsion qo‘llab-quvvatlashning xorijiy tajribalari.....	277
Kurbanov F.U. Raqamli iqtisodiyotning moliyaviy xizmatlar bozoriga ta’siri.....	283
Umarov T.S. Qurilish sanoati korxonalari iqtisodiy barqarorligini statistik baholashning nazariy-uslubiy asoslarini takomillashtirish.....	287
Rahimova N.A. Kichik biznes subyektlarida inson resurslarini boshqarish tizimidagi muammolari va ularni bartaraf etishda zamonaviy yondashuvlar.....	291
Yangiboyev U.A. Raqamli iqtisodiyot sharoitida iqtisodiy menejment tizimini takomillashtirishning nazariy-uslubiy asoslari va amaliy yo‘nalishlari.....	295
Махкамова Н.С. Роль зеленых облигации в финансировании проектов устойчивого развития.....	299
To‘xtarova F.Y. Analysis of tourism insurance practices and their economic efficiency.....	304
Anvarov Sh.D. O‘zbekiston qimmatli qog‘ozlar bozorida investitsion muhitni rivojlantirishning institutsional va infratuzilmaviy omillari.....	308
Xalmirzayev O.A. Ko‘p obyektli savdolarida Vickrey-Clark-Groves mexanizmining samaradorligi tahlili....	313
Zaidov I.I. Qishloq xo‘jaligi mahsulotlari bozorida raqobat munosabatlarini boshqarish mexanizmlari.....	318
Rahimova N.A. Inson kapitalini boshqarishning tashkilot raqobatbardoshligiga ta’siri.....	321
Gulimboyev S.I., Rejapov X.X. O‘zbekiston oliy ta’lim tizimida ta’lim kreditlarining iqtisodiy ahamiyati....	324
Bardiyev S.U. Mintaqada raqamli iqtisodiyotning iqtisodiy samaradorligini baholash: Xorazm viloyati misolida.....	328
Qulmatova S.S. Mahalla tizimida oziq-ovqat ta’minoti zanjirini IoT va sun’iy intellekt texnologiyalari asosida intellektual boshqarish mexanizmlarini takomillashtirish.....	332
Aminov S.S. Mintaqada qurilish sohasidagi innovatsion rivojlanishga ta’sir etuvchi omillar.....	336
Дадабоева М.М. Кичик бизнеснинг иқтисодийёт тармоқлари бўйича ривожланиш тенденциялари.....	340
Numonjonova N.A. Kichik biznesni rivojlantirishda investitsiyalardan foydalanish samaradorligini oshirish	344
Абдулазизов А.А. Гидроэнергетика саноати ва унда ресурс тежаш жараёнларининг хорижий тажрибалари.....	348
Muradov O.U. Sanoat korxonalarida iqtisodiy samaradorlikni oshirish bo‘yicha xorijiy tajribalar va ulardan foydalanish imkoniyatlari.....	352
Saidova M.J. Xorijiy mamlakatlarda kichik biznes va xususiy tadbirkorlikni rivojlantirish tajribasi va uni O‘zbekistonda qo‘llash yo‘nalishlari.....	356
Umirova G.Sh. Qurilish materiallari ishlab chiqarish korxonalarida rentabellik ko‘rsatkichlari asosida iqtisodiy samaradorlikni baholash metodikasini takomillashtirish.....	360
Narmanov U.A., Nazarov J.B., Tursunaxmadov X.Sh. Moliyaviy risklarning iqtisodiy ahamiyati va uni boshqarishning zarurligi: risk tushunchasi va uning turlari.....	365
Nosirov S.N. Barqaror moliyalashtirish global bozorlari: zamonaviy tendensiyalar va rivojlanish muammolari.....	369
Farmanov J.Z., Sanetullaev A.E. Modeling of economic basis and forecast indicators of innovation transformation processes in agricultural entrepreneurship.....	373
Mirzataev S.M. Integration of digital and smart technologies in increasing the ecological resilience of the agricultural system.....	376
Kidirniyazov A.Sh. Development of artificial intelligence-based service monitoring systems for construction quality control.....	379
Абдуллаева Ш.Э. Халқаро индекслар асосида ижтимоий ҳимоя тизимини молиялаштириш.....	382
Mirjalolova M.M. Sun’iy intellekt texnologiyalarining O‘zbekistonda kichik biznes va xususiy tadbirkorlik samaradorligini oshirishdagi o‘rni.....	389
Baytanov O‘.M. Sanoat korxonalarida mahsulot sifatini boshqarishning tarmoq xususiyatlari.....	394
Умаров А.Т. Особенности развития социальной сферы в Узбекистане.....	400

**USTAMA XARAJATLARNI TASNIFLASH VA UNING MAHSULOT TANNARXINI
SHAKLLANTIRISHDAGI AHAMIYATI**

**КЛАССИФИКАЦИЯ НАКЛАДНЫХ РАСХОДОВ И ЕЁ ЗНАЧЕНИЕ В
ФОРМИРОВАНИИ СЕБЕТОИМОСТИ ПРОДУКЦИИ**

**CLASSIFICATION OF OVERHEAD COSTS AND ITS IMPORTANCE IN FORMING
THE COST OF PRODUCTION**

Yusupova Malika Botiraliyevna

Andijon davlat texnika instituti, i.f.n., dotsent

Jamoliddinova (Usmonova) Surayyoxon Sardorbek qizi

Andijon davlat texnika instituti, 1-bosqich magistranti

Annotatsiya

Mazkur maqolada ustama xarajatlarning iqtisodiy mohiyati, ularning tarkibiy tuzilmasi hamda ishlab chiqarish tannarxini shakllantirishdagi o‘rni ilmiy-nazariy jihatdan tahlil qilingan. Bozor iqtisodiyoti sharoitida korxonalarining moliyaviy barqarorligi va raqobatbardoshligini ta’minlashda xarajatlarni to‘g‘ri hisobga olish va samarali boshqarish muhim ahamiyat kasb etishi asoslab berilgan.

Kalit so‘zlar: Ustama xarajatlar, ishlab chiqarish tannarxi, xarajatlar tarkibi, iqtisodiy mohiyat, ishlab chiqarish xarajatlari, boshqaruv hisobi, xarajatlarni taqsimlash, moliyaviy samaradorlik, xarajatlarni optimallashtirish.

В данной научной работе теоретически проанализированы экономическая сущность накладных расходов, их структурное содержание, а также функциональная роль в формировании производственной себестоимости продукции. Обосновано, что в условиях рыночной экономики финансовая устойчивость, конкурентоспособность и уровень рентабельности хозяйствующих субъектов напрямую зависят от рационального учета и эффективного управления затратами.

Ключевые слова: Накладные расходы, себестоимость продукции, классификация затрат, экономическая сущность, производственные затраты, управленческий учет, распределение затрат, финансовые результаты, рентабельность, оптимизация затрат.

This scientific paper provides a theoretical analysis of the economic essence of overhead costs, their structural composition, and their functional role in the formation of production cost. It is substantiated that in a market economy, the financial stability, competitiveness, and profitability of enterprises largely depend on the rational accounting and effective management of costs.

Keywords: Overhead costs, production cost, cost classification, economic essence, production expenses, management accounting, cost allocation, financial results, profitability, cost optimization.

Bozor iqtisodiyoti sharoitida xo‘jalik yurituvchi subyektlar faoliyatining samaradorligini oshirish, resurslardan oqilona foydalanish hamda mahsulot tannarxini asosli ravishda shakllantirish dolzarb iqtisodiy masalalardan biri hisoblanadi. Korxonalarining moliyaviy barqarorligi, ularning raqobat muhitida ustunlikka erishishi va uzoq muddatli rivojlanishi ko‘p jihatdan xarajatlarni to‘g‘ri hisobga olish va boshqarish tizimining samaradorligiga bog‘liq.

So‘nggi yillarda ishlab chiqarish jarayonlarining murakkablashuvi, texnologik yangilanishlar hamda mahsulot turlarining kengayishi natijasida xarajatlar tarkibida ustama (bilvosita) xarajatlar ulushi sezilarli darajada ortib bormoqda. Mazkur holat esa ularni tasniflash, hisobga olish va mahsulot tannarxiga asosli ravishda taqsimlash zaruratini yanada kuchaytirmoqda.

Ustama xarajatlar iqtisodiy mazmuniga ko‘ra ishlab chiqarish jarayonida bevosita mahsulot birligiga to‘g‘ridan-to‘g‘ri bog‘liq bo‘lmagan, biroq ishlab chiqarishni tashkil etish, boshqarish hamda uzluksiz faoliyatini ta‘minlash bilan uzviy aloqador bo‘lgan xarajatlar yig‘indisini ifodalaydi. Mazkur xarajatlar ishlab chiqarish infratuzilmasini shakllantirish, texnologik jarayonlarning uzluksizligini ta‘minlash va boshqaruv tizimini samarali yuritish uchun zarur shart-sharoitlarni yaratadi. Shu bois ular korxonaning umumiy ishlab chiqarish samaradorligiga bilvosita, ammo sezilarli darajada ta‘sir ko‘rsatadi.

Ustama xarajatlarning o‘ziga xos jihati shundan iboratki, ularni alohida mahsulot turiga bevosita bog‘lash yoki to‘g‘ridan-to‘g‘ri biriktirish imkoniyati cheklangan bo‘lib, ular odatda maxsus tanlangan taqsimlash bazalari orqali mahsulot tannarxiga yuklanadi. Bunday bazalar sifatida mehnat sarfi, mashina-soatlar, ishlab chiqarish hajmi yoki boshqa iqtisodiy ko‘rsatkichlardan foydalaniladi. Shu bilan birga, ustama xarajatlarning tarkibi ko‘p qirrali bo‘lib, u o‘z ichiga ishlab chiqarish ustama xarajatlari, ma‘muriy-boshqaruv xarajatlari hamda ayrim hollarda noishlab chiqarish xarajatlarini ham qamrab oladi.

Mazkur xarajatlarning to‘g‘ri hisobga olinishi va ilmiy asosda taqsimlanishi mahsulot tannarxining aniqligini ta‘minlashda muhim ahamiyatga ega. Aks holda, ustama xarajatlarning noto‘g‘ri taqsimlanishi mahsulot tannarxining sun‘iy ravishda oshishi yoki kamayishiga olib kelib, narx belgilash siyosatiga, foyda miqdoriga hamda korxonaning umumiy moliyaviy natijalariga salbiy ta‘sir ko‘rsatishi mumkin. Shu sababli ustama xarajatlarni chuqur tahlil qilish, ularni tasniflash va samarali boshqarish zamonaviy boshqaruv hisobi tizimining muhim yo‘nalishlaridan biri hisoblanadi.

Ilmiy adabiyotlarda ustama xarajatlarni tasniflashning turli yondashuvlari mavjud bo‘lib, ularning eng keng tarqalgan va amaliy jihatdan qulay shakli doimiy hamda o‘zgaruvchan xarajatlarga ajratish hisoblanadi. Bunday tasniflash xarajatlarning ishlab chiqarish hajmiga nisbatan xulq-atvorini aniqlash, ularni boshqarish va rejalashtirish jarayonlarini takomillashtirishda muhim ahamiyat kasb etadi. Ayniqsa, ushbu yondashuv korxonalarda xarajatlar tuzilmasini chuqurroq tahlil qilish hamda ularning mahsulot tannarxiga ta‘sir darajasini aniqlash imkonini beradi.

Doimiy ustama xarajatlar ishlab chiqarish hajmining o‘zgarishidan qat‘i nazar, ma‘lum davr mobaynida nisbatan barqaror bo‘lib qoladigan xarajatlardir. Ular korxonaning ishlab chiqarish quvvatini saqlash va boshqaruv tizimini ta‘minlash bilan bog‘liq bo‘lib, ishlab chiqarish hajmi kamaygan yoki ortgan holatlarda ham o‘z miqdorini keskin o‘zgartirmaydi. Bunday xarajatlarga amortizatsiya ajratmalari, ishlab chiqarish binolari va inshootlarini saqlash bilan bog‘liq xarajatlar, boshqaruv apparati xarajatlari hamda umumxo‘jalik xarajatlari kiradi. Shu bilan birga, doimiy xarajatlar mahsulot birligiga nisbatan hisoblanganda ishlab chiqarish hajmiga teskari proporsional ravishda o‘zgaradi, ya‘ni ishlab chiqarish hajmi oshgan sari mahsulot birligiga to‘g‘ri keladigan doimiy xarajatlar kamayadi va aksincha.

O‘zgaruvchan ustama xarajatlar esa ishlab chiqarish hajmi o‘zgarishiga to‘g‘ridan-to‘g‘ri bog‘liq bo‘lib, ishlab chiqarish ko‘lami kengaygani sari ortib boradi, qisqargan sari esa kamayadi. Mazkur xarajatlar ishlab chiqarish jarayonida bevosita ishtirok etuvchi, biroq asosiy ishlab chiqarish xarajatlariga kiritilmaydigan resurslar bilan bog‘liqdir. Ularga yordamchi materiallar, texnologik jarayonlarni qo‘llab-quvvatlash xarajatlari, yordamchi ishchilar mehnati hamda energiya resurslarining bir qismi kiradi. O‘zgaruvchan xarajatlarning asosiy xususiyati shundaki, ular mahsulot birligiga nisbatan odatda nisbatan barqaror bo‘lib qoladi, ya‘ni umumiy miqdori ishlab chiqarish hajmiga mutanosib ravishda o‘zgaradi.

Ustama xarajatlarni doimiy va o‘zgaruvchan turlarga ajratish ularni samarali boshqarish, rejalashtirish va nazorat qilish jarayonida muhim metodologik asos bo‘lib xizmat qiladi. Bu yondashuv orqali korxonalar ishlab chiqarish hajmidagi o‘zgarishlarning xarajatlarga ta‘sirini oldindan baholash, tannarxni optimallashtirish hamda moliyaviy natijalarni prognozlash imkoniyatiga ega bo‘ladi.

Ustama xarajatlarni tasniflashning yana bir muhim yo‘nalishi ularni funksional belgilari asosida guruhlashdan iborat bo‘lib, ushbu yondashuv xarajatlarning korxona faoliyatidagi vazifaviy o‘rnini aniqlash imkonini beradi [2].

Ustama xarajatlarning funksional tasnifi va ularning xususiyatlari

№	Xarajatlar guruhi	Mazmuni	Misollar	Tannarxga ta'siri
1	Ishlab chiqarish ustama xarajatlari	Ishlab chiqarish jarayonini ta'minlash bilan bog'liq xarajatlar	Amortizatsiya, energiya, texnik xizmat	Bevosita tannarxga kiritiladi
2	Ma'muriy-boshqaruv xarajatlari	Korxona boshqaruvi va umum-xo'jalik faoliyati bilan bog'liq	Menejerlar ish haqi, ofis xarajatlari	Bilvosita ta'sir ko'rsatadi
3	Sotish (tijorat) xarajatlari	Mahsulotni realizatsiya qilish bilan bog'liq xarajatlar	Reklama, transport, marketing	Narx shakllanishiga ta'sir qiladi

Mazkur tasniflashga ko'ra, ustama xarajatlar ishlab chiqarish ustama xarajatlari, ma'muriy-boshqaruv xarajatlari hamda sotish (tijorat) bilan bog'liq xarajatlarga ajratiladi[4]. Ishlab chiqarish ustama xarajatlari bevosita ishlab chiqarish jarayonini ta'minlash bilan bog'liq bo'lsa, ma'muriy xarajatlar korxona boshqaruvi, rejalashtirish va nazorat faoliyatini amalga oshirishga xizmat qiladi. Sotish bilan bog'liq xarajatlar esa tayyor mahsulotni realizatsiya qilish, marketing faoliyatini yuritish hamda bozor infratuzilmasi bilan o'zaro aloqalarni ta'minlash bilan bog'liqdir. Bunday yondashuv xarajatlarning kelib chiqish manbalari va ularning iqtisodiy natijalarga ta'sirini chuqurroq o'rganish, shuningdek, ularni boshqaruv nuqtai nazaridan samarali nazorat qilish imkonini beradi[3].

Mahsulot tannarxini shakllantirish jarayonida ustama xarajatlarning o'rni alohida ahamiyat kasb etadi. Ular ishlab chiqarish jarayonining uzluksizligini ta'minlash, texnologik infratuzilmani qo'llab-quvvatlash, ishlab chiqarish resurslaridan samarali foydalanish hamda boshqaruv faoliyatini amalga oshirish uchun zarur iqtisodiy shart-sharoitlarni yaratadi. Shu bilan birga, ustama xarajatlar ishlab chiqarish samaradorligining muhim indikatorlaridan biri bo'lib, ularning darajasi va tarkibi korxonaning umumiy iqtisodiy holatini tavsiflaydi. Biroq ushbu xarajatlarni noto'g'ri taqsimlash mahsulot tannarxining sun'iy ravishda oshishi yoki kamayishiga olib kelishi mumkin, bu esa o'z navbatida narx belgilash mexanizmining buzilishiga, foyda miqdorining noto'g'ri aniqlanishiga hamda korxonaning moliyaviy natijalariga salbiy ta'sir ko'rsatadi.

Zamonaviy boshqaruv hisobi tizimida ustama xarajatlarni taqsimlashning turli usullari shakllangan bo'lib, ular orasida an'anaviy va innovatsion yondashuvlar mavjud. An'anaviy tizimda yagona taqsimlash stavkasi qo'llanilgan bo'lsa, bu usul ishlab chiqarish jarayonlari bir xil bo'lgan sharoitlarda nisbatan samarali bo'lgan. Biroq ishlab chiqarishning diversifikatsiyalashuvi va texnologik murakkablashuvi sharoitida ushbu yondashuv yetarli aniqlikni ta'minlamaydi[1]. Shu bois hozirgi davrda ikki bosqichli taqsimlash tizimi keng qo'llanilmoqda. Ushbu tizimga muvofiq, dastlab ustama xarajatlar ishlab chiqarish bo'linmalari kesimida taqsimlanadi, so'ngra har bir bo'linma doirasida mahsulotlarga mos ravishda tanlangan taqsimlash bazalari orqali yuklanadi. Natijada mahsulot tannarxi aniqroq va real iqtisodiy sharoitlarga mos holda shakllanadi.

Bundan tashqari, zamonaviy amaliyotda ustama xarajatlarni faoliyat darajalariga qarab tasniflash, ya'ni mahsulot birligi, partiya va mahsulotni qo'llab-quvvatlash darajalari bo'yicha ajratish keng qo'llanilmoqda. Ushbu yondashuv xarajatlar va ularni yuzaga keltiruvchi omillar o'rtasidagi sabab-oqibat bog'liqligini aniqlashga yordam beradi. Xususan, mahsulot birligiga tegishli xarajatlar ishlab chiqarilgan mahsulot miqdoriga bevosita bog'liq bo'lsa, partiya xarajatlari ma'lum bir ishlab chiqarish sikli yoki buyurtma bilan bog'liq bo'ladi. Mahsulotni qo'llab-quvvatlash xarajatlari esa mahsulot turini ishlab chiqarishni davom ettirish va uni bozorda ushlab turish bilan bog'liq bo'lib, ular ishlab chiqarish hajmiga to'g'ridan-to'g'ri bog'liq emas.

Zamonaviy axborot texnologiyalarining jadal rivojlanishi ustama xarajatlarni hisobga olish va taqsimlash jarayonlarini tubdan takomillashtirish imkonini bermoqda. Avtomatlashtirilgan axborot

tizimlari yordamida xarajatlarni real vaqt rejimida monitoring qilish, ularni tezkor tahlil etish hamda optimal boshqaruv qarorlarini qabul qilish imkoniyati kengaymoqda[4]. Natijada hisob-kitoblarning aniqligi oshib, inson omili bilan bog‘liq xatoliklar kamayadi, boshqaruv tizimining samaradorligi esa sezilarli darajada ortadi[2].

Tadqiqot natijalari shuni ko‘rsatadiki, ustama xarajatlarni ilmiy asosda tasniflash va ularni mahsulot tannarxiga asosli ravishda taqsimlash korxona faoliyatining iqtisodiy samaradorligini oshirishda muhim omil hisoblanadi. Ayniqsa, doimiy va o‘zgaruvchan xarajatlarni ajratish, mos taqsimlash bazalarini tanlash hamda zamonaviy taqsimlash usullaridan foydalanish mahsulot tannarxining aniqligini oshirishga xizmat qiladi.

Shuningdek, ustama xarajatlarni samarali boshqarish orqali ishlab chiqarish tannarxini optimallashtirish, narx belgilash siyosatini takomillashtirish hamda korxonaning raqobatbardoshligini oshirish mumkin. Shu bois korxonalarda ustama xarajatlarni hisobga olish va taqsimlash tizimini zamonaviy talablar asosida takomillashtirish muhim ilmiy va amaliy vazifa sifatida namoyon bo‘ladi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

1. International Accounting Standards Board. IAS 2 Inventories. – London: IFRS Foundation, 2021.
2. Drury C. Management and Cost Accounting. – 10th ed. – London: Cengage Learning, 2018.
3. Shodmonov Sh., G‘afurov U. Iqtisodiyot nazariyasi. – Toshkent: Fan, 2019.
4. Yo‘ldoshev Q. Korxona iqtisodiyoti. – Toshkent, 2020.

UDK: 338.45

**ISHLAB CHIQUYARISH KORXONALARIDA TANNARXNI KALKULATSIYA QILISH VA
UNI TAKOMILLASHTIRISH YO‘LLARI**

**КАЛЬКУЛЯЦИЯ СЕБЕСТОИМОСТИ НА ПРОИЗВОДСТВЕННЫХ
ПРЕДПРИЯТИЯХ И ПУТИ ЕЁ СОВЕРШЕНСТВОВАНИЯ**

**CALCULATION OF PRODUCTION COST IN MANUFACTURING ENTERPRISES AND
WAYS OF ITS IMPROVEMENT**

Abdug‘ofurova Oybachin Maxmudjon qizi

Andijon davlat texnika instituti Buxgalteriya hisobi mutaxassisligi magistranti

Yusupova Malika Botiraliyevna

Andijon davlat texnika instituti professori, iqtisod fanlari nomzodi

Annotatsiya

Mazkur maqolada ishlab chiqarish korxonalarida mahsulot tannarxini kalkulyatsiya qilishning zamonaviy muammolari, uning takomillashtirish yo‘llari o‘rganilgan. Tadqiqotda tannarx tarkibidagi xarajatlar ulushi tahlil qilinib, raqamli texnologiyalar, Just-in-Time ta‘minot tizimi, Kaizen falsafasi va gibrid kalkulyatsiya modellari qiyoslanib, O‘zbekiston sanoat korxonalariga moslashtirilgan amaliy tavsiyalar ishlab chiqilgan.

Kalit so‘zlar: tannarx kalkulyatsiyasi, xarajatlar boshqaruvi, ABC metodi, Target Costing, Just-in-Time, ERP tizimi, raqamlashtirish, Kaizen falsafasi.

В данной статье рассматриваются современные проблемы калькуляции себестоимости продукции на производственных предприятиях и пути ее совершенствования. В исследовании анализируется доля затрат в структуре себестоимости, проводится сравнение цифровых технологий, систем поставок «точно в срок», философии Кайдзен и гибридных моделей